

**NAVOIY RUBOIYLARIDA AXLOQIY MEZONLAR****Davlataliyeva Kumush Akmaljon qizi**

Namangan davlat universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6537047>

*Annotatsiya.* Maqolada o`ziga xos shakliy qurilma tizimiga ega, falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, ishqiy va axloqiy mavzularda yoziluvchi ruboiy janrining Navoiy ijodida tutgan o`rni va uning axloqiy tamoyillari haqida fikr bildirildi.

*Kalit so`zlar:* ruboiy, bahr, misra, lirika, axloqiy qarashlar, mumtoz adabiyot, dubaytiy, tarona, qofiya, vazn, janr.

**ЭТИЧЕСКИЕ КРИТЕРИИ В НАВОИ РУБОИ**

*Аннотация.* В статье высказано мнение о роли жанра рубаи в творчестве Навои и его моральных принципах, имеющих свою систему формообразования, написанных на философские, социально-политические, романтические и этические темы.

*Ключевые слова:* рубаи, бар, Мисра, лирика, моральные взгляды, классическая литература, рубаи, тарона, рифма, вес, жанр.

**ETHICAL CRITERIA IN NAVOI RUBOI**

*Abstract.* The article expressed an opinion on the role and moral principles of the ruboi genre in Navoi's creativity, which has a unique formative system, is written on philosophical, socio-political, romantic and moral themes.

*Keywords:* ruboi, bahr, misra, lyricism, moral views, classical literature, Dubai, tarona, rhyme, weight, genre.

**Kirish.** Ruboiyni tushunib, undan zavq olish uchun, avvalo, misralar zamiridagi ma`nolarni obdon anglab olish lozim. Zero, Sharq adabiyotining o`ziga xos jihati, har bir shakliy vosita muayyan mazmunning ifodasiga mutanosib ekanligidadir. Navoiy ruboiylarida aynan shu narsani ko`rishimiz mumkin. Ya`ni, ularda shakl va ma`no uyg`unligi mujassam.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI VA MUHOKAMA.** Ruboiy (arabcha – to`rtlik) – Sharq mumtoz she`riyatida keng tarqalgan lirik janr, hazaj bahrining axrab va axram shajaralarida yozilib, ko`proq a-a-b-a tarzida qofiyalanuvchi mustaqil lirik asar.[1] Hazrat Navoiyni o`zbek adabiyotida ruboiy janrining asoschisi desak mubolag`a bo`lmaydi. Lekin, 8-sinf adabiyot darsligida turkiy adabiyotga birinchilarda bo`lib ruboiy janrini olib kirgan shoir sifatida Mavlono Lutfiy ko`rsatilgan.[2.] Dilmurod Quronovning “Adabiyotshunoslik lug`ati” kitobida esa Lutfiy to`rtliklari ramal bahrida yaratilganligi aytilgan.[B-261] Demak, Lutfiy to`rtliklari ruboiy bo`la olmaydi. Chunki, Yoqubjon Is`hoqov:”Biror to`rtlikni ruboiy deb atash uchun unda tugal mazmun, ruboiy shakli bo`lishidan tashqari ruboiy vazni ham bo`lishi kerak. To`rtlik qanchalik chuqur ma`no va go`zal shaklga ega bo`lmasin, agar u ruboiyning maxsus vazniga tushmasa, ruboiy bo`la olmaydi” – deydi.[3.] Bu haqda Navoiyning o`zi ham yozgan edi: “Ruboiy vaznikim, oni “dubaytiy” va “tarona” ham derlar, hazaj bahrining axram va axrabidan istixroj qilibdurlar va ul vaznedur asru xushoyanda va nazmedur bag`oyat raboyanda”.[4.]Shuningdek Xondamir o`zining “Makorimul-axloq” asarida: “Ko`rinishicha, ul hazratdan ilgari hech kim turkiy tilda ruboiy aytmagan”[5.], – deya Navoiy haqida fikr bildiradi. Ushbu ilmiy dalillarga asoslangan holda biz yuqoridagi fikrga keldik. Lekin Lutfiy to`rtliklari o`zbek yozma adabiyotida klassik ruboiy janrining shakllanishida muhim bosqich bo`lgan. Ammo, bu faktlar bilan “Navoiygacha ruboiy janrida hech kim ijod qilmagan ekanda?” – degan fikrga kelish noto`g`ri, albatta. Ruboiy so`zining kelib chiqishi arabcha bo`lsa-da, bu janr dastlab fors adabiyotida paydo bo`lgan. Keyinchalik esa arab va turkiy adabiyotga ham ko`chgan. Fors adabiyotida bu janr asoschisi sifatida Rudakiy ko`rsatiladi. Keyinchalik esa, Shahid Balxiy ijodida ham ko`zga tashlangan. Turkiy adabiyotimizda ruboiy janrida xo`p va ko`p baytlari bilan o`zbek adabiyotiga benazir hissa qo`shgan Navoiyning lirik merosi bilan o`ziga xos o`rin egallaydi. Alisher Navoiyning turkona ruboiylarining 133 tasi “Xazoyin ul-maoniy”ning birinchi devoni – “G`aroyib us-sig`ar”ga, “Badoye` ul-

bidoya” debochasiga 8 ta, “Mahbub ul-qulub”ga 12 ta, “Majolisun-nafois”ga 8 ta, “Vaqfiya”ga 15 ta, “Munshaot”ga 58 ta, “Holoti Pahlavon Muhammad”ga 1 ta, “Holoti Sayid Hasan Ardasher”ga 2 ta, “Mezonul-avzon”ga 7 ta, “Muhokamatul-lug`atayn”ga 3 ta, “Xamsatul-mutahayyirin”ga 3 ta kiritilgan. Olima Ma`rifat Rajabova o`zining “”Nazm ul-javohir” manbalari va badiiyati” nomli nomzodlik dissertatsiyasida shoirning tarjima asari “Nazm ul-javohir” (“Nasr ul-laoliy”-“Marvarid hikmatlar” asarining she`riy tarjimasi)da ruboiylar soni 268 ta ekani aytilgan.

**NATIJA.** Demak, Navoiy turkiy tilida 500 ga yaqin ruboiy bitgan.

*Eykim, qilasen jilva-u ishrat chog`i zeb,*

*Mustahsan emas er kishining qilmog`i zeb,*

*Gar bo`lsa ishing ko`pragi yo ozrog`i zeb,*

*Zohirdin erur sutuda botindog`i zeb.[6]*

“Nazm ul-javohir” devonidan olingan ushbu ruboiyda shoir birinchi, ikkinchi va uchinchi misralarda kitobxonga tanbeh berib, to`rtinchi misrada bevosita yakuniy xulosa beradi. Dilmurod Quronov bu haqida: “dastlabki ikki misrada g`oya va maqsad, keyingi ikki misrada dalil va xulosa o`z aksini topadi. Shundan kelib chiqib hozirgi adabiyotshunoslikda ruboiyni birinchi misrasi tezis, ikkinchisi antitezis, uchinchisi moddai ruboiya (yoki xulosa uchun asos bo`ladigan ko`prik), to`rtinchi misra esa sintez deyiladi” [B-262] – deydi. Ya`ni ushbu ruboiyning xulosasi: “botiniy husn zohiriy husndan yaxshiroqdir”. Shoir kitobxonga qalb go`zalligi hamma narsadan ustunligini uqtirmoqda. Ushbu g`oya hozirgi davr muammosiga aylandi desak mubolag`a bo`lmaydi, menimcha. Chunki ko`pchiligimiz insonning tashqi ko`rinishiga, kiyimiga qarab muomala qilamiz, do`st tanlaymiz. Bundan necha asrlar avval Hazrat Navoiy buning noto`g`ri ekanligini ta`kidlab o`tgan.

*Gardun gah manga jafo-u dunluq qildi,*

*Baxtim kibi, har ishta zabunluq qildi,*

*Gah kom sari rahnamunluq qildi,*

*Alqissa, base buqalamunluq qildi.*

Ruboiylar qofiyalanishiga ko`ra 2 ga bo`linadi: ruboiyi xosiy va ruboiyi tarona. Ruboiyi xosiy a-a-b-a tarzida, ruboiyi tarona esa a-a-a-a tarzida qofiyalanadi. Navoiyning o`zbekcha ruboiylarining 95 foizi, forsiy ruboiylarining hammasi ruboiyi taronaga to`g`ri keladi. “Mahbub ul-qulub”dan olingan yuqoridagi ruboiy ham ruboiyi taronada yozilgan. Ya`ni to`rttala misra ham: “dunluq”, “zabunluq”, “Rahnamunluq”, “Buqalamunluq” – o`zaro qofiyalangan. Ushbu ruboiyda “inson Alloh tomonidan yuborilgan har qanday sinovga – hoh shodlik bo`lsin, hoh g`am bo`lsin sabr bilan chidashi kerakligi” haqidagi g`oya ilgari surilgan. Xalqimiz donoligi bo`lmish “oyning o`n beshi yorug`, o`n beshi qorong`u” degan maqolga ham to`g`ri keladi.

*G`urbatda g`arib shodmon bo`lmas emish,*

*El anga shafiqu mehribon bo`lmas emish.*

*Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa,*

*Bulbulg`a tikandek oshyon bo`lmas emish.*

Bu ruboiy “G`aroyib us-sig`ar”dan olingan bo`lib, shoir uni hozirgi Eronning Mashhad shahrida musofirlikda yurgan vaqtlarida yozganligi aytiladi. Buni ruboiy mazmunidan ham bilish mumkin. Ya`niki, ruboiyning birinchi va ikkinchi misrasida: “musofirlikda inson xursand bo`la olmasligi, o`zga yurt vakillari begonaga mehribonlik qilmasliklari”, – aytilgan. Buning dalili sifatida esa: “bulbul qafas oltindan bo`lsa ham o`zining tikonli erkin vataniga alishmasligi” – keltirilgan. Buni dastlabki ikki satrda aytilgan umumiy fikrning qiyosiy isboti deyish mumkin. Yuqorida ta`kidlaganimizdek, Navoiy ruboiylarining 95 foizi taronai ruboiyda yozilgan. Ushbu ruboiy esa qolgan 5 foiz tarkibidagi ruboiylardan. Ya`ni, ruboiyi xosiyda yozilgan.

*O`lsam yasamang munda mozorimni mening,*

*Yuklab eliting jismi firog`imni mening,*

*O`tru chiqarib ahli diyorimni mening,*

*Ko`yida qo`yung tani nizorimni mening.*

To`rt tomlik “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati”da: firoq-ayriliq, uzoqlashish, judolik [3-tom.-B 347], o`tru-qarshi, muqobil ro`para [3-tom.-B 617], ko`y-ko`cha, mahalla, kata yo`l [2-tom.-B 148], nazor-ozg`in, sust, zaif [2-tom.-B 459] tarzida izohlangan. Shundan kelib chiqqan holda “G`aroyib us-sig`ar”dan olingan yuqoridagi ruboiyni quyidagicha tahlil qilish mumkin: birinchi misrada Navoiy “ o`lsam mozorimni ya`ni qabrimni yasamanglar” – demoqda. Buning sababini esa qolgan misralarda tushuntiradi. Ikkinchi misrada jonidan judolikdagi jismini yuklab eltishlikni; uchinchi va to`rtinchi misralarda zaif tanasini ahli diyoriga ya`ni xalqqa ro`para qilib katta ko`chaga qo`yishlikni aytadi. Bizga ma`lumki, Navoiy o`z davrining o`ziga to`q amaldorlaridan bo`lgan. Lekin shuncha boyligi bo`lsa ham hech nima olib keta olmasligini xalq ko`rishini istaydi. Bu ruboiyda “Insondan faqatgina yaxshi amallari qolishi, shuning uchun qo`ldan kelgancha yaxshilik qilish kerakligi” g`oyasi ilgari surilgan.

*Farzand ato qullig`in chu odat qilg`ay,*

*Ul odat ila kasbi saodat qilg`ay,*

*Har kimki atog`a ko`p rioyat qilg`ay,*

*O`g`lidin anga bu ish siroyat qilg`ay.*

“Nazm ul-javohir” (“Gavharlar tizmasi”) asaridan olingan ushbu ruboiyda qaysiki farzand otasi xizmatini qilishni odat qilsa, o`sha odati uchun kasbida saodatga erishishi va otasiga itoat qilgan har qanday insonning o`g`lining o`g`liga ham bu odat yuqishligi aytilgan. Bunday tahlil qilishimizning sababi: “Siroyat-o`tish, ta`sir, yuqish”[7], – deya izohlangan. Hadislarimizda ham “ota-onaga yaxshi muomalada bo`lish kerakligi, qanday muomala qilsa, farzandidan qaytishi”, – aytilgan.

**XULOSA.** Ulug` shoir oddiy so`zlar orqali to`rttagina misraga qalamining sohir kuchi bilan o`ta nozik g`oyaviy, ijtimoiy, ma`naviy va tarbiyaviy ahamiyatga ega hayotiy mazmunlarni yuklay olishdek yuksak mahoratini namoyon etadi.

*Adabiyotlar:*

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug`ati. – T: Akademnashr, 2013. – B 338.
2. Olimov S., Ahmedov S., Qo`chqorov R. Adabiyot (Umumiy o`rta ta`lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik). – T.: G`afur G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2019. – B 67.
3. Is`hoqov Y. Navoiy poetikasi (“Xazoyin ul-maoniy” asosida). – T.: Fan nashriyoti, 1983. – B 79.
4. Navoiy, Alisher. Mezon ul-avzon (ilmiy-tanqidiy tekst). – T. 1949. – B 35.
5. Xondamir. Makorim-ul-axloq. – Toshkent, 1967. – B 50.
6. <http://navoinatlib.uz8101> Navoiy, Alisher. Nazm ul-javohir. // Mukammal asarlar to`plami. 20 tomlik. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1991.
7. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug`ati (4 tomlik). – T.: Fan, 1984. 3-tom, – B 88.